

529 Plan Account nima?

529 529 Plan Account nima?

529 Plan Account - oilalarga oliy ta'lim uchun jamg'arishda yordam berish maqsadida maxsus yaratilgan investitsiya hisobining bir turidir. 529 Plan Account'dagi mablag' vaqt o'tishi bilan ko'payishi mumkin. Shu bilan birga, 529 Plan Account'dagi mablag'ning ko'payishi kafolatlanmagan va u qiymatini yo'qotishi ham mumkin. NY 529 Direct Plan (To'g'ridan-to'g'ri reja) - bu Nyu-York shtati Bosh nazorati ofisi va Nyu-York Oliy ta'lim xizmatlari korporatsiyasi tomonidan boshqariladigan 529 kollej jamg'arma tarifi hisoblanadi.



NYC stipendiya hisobi nima?

NYC davlat maktablariga (NYC public schools)(shu jumladan ishtirokchi charter maktablarga)ro'yxatdan o'tgan har bir maktabgacha ta'lim o'quvchisi, agar ota-onasi yoki vasiy Dasturdan "chiqishni" tanlamasa, Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) doirasida boshlang'ich 100\$ mablag'li NYC stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) avtomatik tarzda ega bo'ladi. Oilalar ushbu hisob uchun mukofot sifatida 175\$ gacha qo'shimcha stipendiya mablag'larini olishlari mumkin va hamjamiyatlar har bir bolaning muvaffaqiyati uchun o'z jamoasining qo'llab-quvvatlashini ko'rsatish maqsadida NYC stipendiya hisoblari guruhlariga qo'shimcha pul o'tkazishlari mumkin.



529

NYC stipendiya hisobi va 529 Plan Account o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

NYC Kids RISE - notijorat tashkilot bo'lib, stipendiya mablag'lariga ishtirokchi o'quvchilar nomidan egalik qiladi va ularni boshqaradi va ushbu mablag'lar NY 529 Direct Plan ga investitsiya qilinadi. NYC Stipendiya hisoblari (NYC Scholarship Accounts) vaqt o'tishi bilan moliyaviy bozorlar va investitsiya natijalariga qarab daromad keltirishi yoki zarar ko'rishini mumkin. **Nyu-York shahridagi barcha davlat maktabi o'quvchilarining kelajakdagi kollej va kasbiy maqsadlari uchun moliyaviy imkoniyatga ega bo'lishlari maqsadida, stipendiya mablag'lari 529 Plan'ga investitsiya qilinadi.** NYC Kids RISE tashkiloti o'quvchilar o'rta maktabda ta'lim olayotgan paytda, ularga va ularning ota-onalari yoki vasiylarga NYC stipendiya hisoblaridan qanday foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturida (Save for College Program) - bu stipendiya va jamg'arma dasturi bo'lib, u NYC Kids RISE Inc. nomli notijorat tashkiloti tomonidan Nyu-York shahri Ta'lim Departamenti va Nyu-York shahri ma'muriyati hamkorligida boshqariladi. NYC Kids RISE Nyu-York shtatining 529 Kollej Jamg'arma Dasturi bilan na hamkorlik qiladi, na uning rasmiy tarqatuvchisi hisoblanadi hamda investitsiya jalb qilmaydi yoki investitsiya bo'yicha maslahat bermaydi. Nyu-York shahri va NYC Ta'lim Departamenti NY 529 dasturi boshqaruvchisi yoki istalgan kollej jamg'arma hisoblari yoki boshqa investitsiya vositalarini - shu jumladan, oilalar Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) orqali o'rganadigan vositalarni - tasdiqlamaydi, tavsiya qilmaydi, nazorat qilmaydi va ularga egalik qilmaydi hamda ular bilan bog'liq emas.

NYC stipendiya hisobidagi pullar nimaga investitsiya qilinadi?

NYC stipendiya hisobidagi mablag'lar Nyu-York shtatining 529 Kollej jamg'arma dasturi *Direct Plan* doirasida taklif etilgan portfelga yo'naltiriladi va bu portfel **aksiyalar, obligatsiyalar hamda qisqa muddatli investitsiyalar** aralashmasidan (aktivlarni taqsimlash) tashkil topgan. Xususan, NYC Kids RISE tashkiloti NYC stipendiya hisoblarini NY 529 *Direct Plan* ning "Maqsadli ro'yxatdan o'tish portfeli"ga joylashtirishni ma'qul ko'rdi, bu portfelga har bir ishtirok etuvchi sinf o'quvchilari kollejga yoki kasbiy ta'limga kirishining kutilayotgan yiliga qarab investitsiya aktivlari taqsimlanadi. Maqsadli ro'yxatdan o'tish portfellaridagi aktivlar taqsimoti, Benefitsiar (farzandingiz) bitiruvga yaqinlashgan sari, vaqt o'tishi bilan har chorakda avtomatik ravishda konservativroq yo'nalishga o'zgartirib boriladi. NYC Stipendiya hisoblari (NYC Scholarship Accounts) vaqt o'tishi bilan moliyaviy bozorlar va investitsiya natijalariga qarab daromad keltirishi yoki zarar ko'rishini mumkin. Farzandingizning NYC stipendiya hisobini faollashtirganingizda va uning hisobini Jamg'arma kuzatuvchisida ko'zdan kechirayotganingizda, hisobdagi mablag'ning ko'payib-kamayib turishini kuzatishingiz mumkin.

NYC stipendiya hisobidagi pullardan nima uchun foydalanish mumkin?

NYC stipendiya hisobidagi mablag'lar NY 529 *Direct Plan* ga investitsiya qilinadi. Mablag' muvofiq muassasalarda turli **tasdiqlangan oliy ta'lim xarajatlari** uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu muassasalarga AQSH va xorijdagi jamoat kollejlari, kasb-hunar va texnik maktablar, akkreditatsiyadan o'tgan amaliyot dasturlari hamda onlayn daraja dasturlari kiradi. Tasdiqlangan xarajatlarga o'qish to'lovlari, yig'imlar, kitoblar, kollej yoki kasbiy tayyorgarlik dasturiga kirish yoki qatnashish uchun zarur bo'lgan jihozlar va uskunalar kiradi, ular ko'pincha boshqa stipendiyalar bilan qoplanmaydi.

Farzandimning NYC stipendiya hisobidagi mablag' bilan nima qilsa bo'ladi?

Oilalar farzandining NYC stipendiya hisobi uchun qo'shimcha mukofotlar qo'lga kiritishi mumkin. Birinchi uchta mukofot "3 asosiy bosqich"ni (3 Building Blocks) bajarish uchun taqdim etiladi. Bu uch bosqich Kollej uchun jamg'arish dasturi orqali farzandingiz kelajagi uchun birgalikda mablag' to'plash maqsadida uzoq muddatli hamkorlikka poydevor yaratadi. Farzandingizning NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) dastlabki 100\$ ga qo'shimcha ravishda, NYC Kids RISE quyidagi har bir Asosiy bosqich (Building Blocks) bajarilgani uchun ushbu hisobga qo'shimcha 25\$ mukofot kiritadi:

- **1-asosiy bosqich:** Farzandingizning NYC stipendiya hisobini nyckr.org/stregister-529 saytida faollashtiring va ko'ring.
- **2-asosiy bosqich:** O'z kollej va kasb-hunar jamg'arma hisobingizni oching va ulang: farzandingizning stipendiya hisobiga ulashingiz mumkin bo'lgan ikki xil variantdan birini tanlang: Batafsil: nyckr.org/options-529.
- **3-asosiy bosqich:** Ulangan kollej va kasb-hunar jamg'arma hisobingizga kamida 5\$ mablag' qo'ying.

Farzandi birinchi sinfga ilk bor borgan kundan boshlab, 3 ta Asosiy bosqichni (Building Blocks) to'liq bajargan oilalar **Jamg'arma rag'bat (Savings Match)** mukofotini olish huquqiga ega bo'ladi. NYC Kids RISE siz kiritgan mablag'ni ulangan kollej va kasb-hunar jamg'arma hisob raqamiga maksimal 100\$ gacha dollarga dollar nisbatda moslashtiradi. 3 asosiy bosqich (jami 75\$) va Jamg'arma moslashtirish (100\$) mukofotlari beshinchi sinfgacha mavjud.

Agar menda hali ham savollar qolgan bo'lsa, qayerga murojaat qilishim kerak?

NYC Kids RISE tashkilotiga 833-543-7473 raqami orqali qo'ng'iroq qiling yoki info@nyckidsrise.org elektron pochta manziliga xabar yuboring.



nyckr.org/faq-529